

**QANDLI DIABET KASALLIGI**

*Bobojonova Feruza Shuxrat qizi  
Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat  
salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Qandli diabet, qand kasalligi — organizmida insulin tanqisligi va moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik hisoblanadi. Qand kasalligi sharq xalq tabobat tarixida juda qadimdan ma'lum. Bu — kasallik odam organizmida issiqlikning oshib ketishi tufayli paydo bo'lishini bildiradi. Qand kasalligi tarixiy tibbiy manbalarga ko'ra, nasliy bo'lishi ham mumkin. Qandli diabetda qonda qand moddasi keskin ko'payib, siydk bilan chiqib turadi (tarkibida qand moddasi bo'ladi), tashnalik, og'iz qurishi, ozib ketish, quvvatsizlik, badan qichishishi va boshqalar alomatlar kuzatiladi.

**Kalit so'zlar:** Qandli diabet, Insulin, Giperglykemiya, Gipoglykemiya, Glyukoza, Glikozillangan gemoglobin, Glyukometr, Diabetik nefropatiya, Diabetik retinopatiya, Diabetik nevropatiya, Insulin qarshiligi, Ketoatsidoz, Glikemik indeks, Diabetik dieta, Pankreatik beta-hujayralar.

**Аннотация:** Сахарный диабет — это заболевание, возникающее вследствие дефицита инсулина в организме и нарушения обмена веществ. Болезнь известна в истории восточной народной медицины с древнейших времён. Согласно этим представлениям, болезнь возникает из-за перегрева организма. Согласно историческим медицинским источникам, сахарный диабет может быть и наследственным. При сахарном диабете резко повышается уровень сахара в крови, сахар выводится с мочой (в моче обнаруживается сахар), наблюдаются такие симптомы, как жажда, сухость во рту, похудение, слабость, зуд кожи и другие признаки.

**Ключевые слова:** Сахарный диабет, Инсулин, Гипергликемия, Гипогликемия, Глюкоза, Гликированный гемоглобин, Глюкометр, Диабетическая, нефропатия Диабетическая ретинопатия, Диабетическая невропатия , Инсулинерезистентность, Кетоацидоз, Гликемический индекс, Диабетическая диета, Бета-клетки поджелудочной железы

**Annotation:** Diabetes mellitus is a disease that develops due to a deficiency of insulin in the body and a disruption of metabolic processes. This illness has been known since ancient times in the history of Eastern traditional medicine. It is believed that the disease can be caused by an excess of internal heat in the body. According to historical medical sources, diabetes can also be hereditary. In diabetes mellitus, the level of sugar in the blood increases sharply, and sugar is excreted in the urine (the

urine contains sugar). Common symptoms include excessive thirst, dry mouth, weight loss, weakness, itching of the skin, and others.

**Key words:** Diabetes mellitus, Insulin, Hyperglycemia, Hypoglycemia, Glucose, Glycated hemoglobin, Glucometer, Diabetic nephropathy, Diabetic retinopathy, Diabetic neuropathy, Insulin resistance, Ketoacidosis, Glycemic index, Diabetic diet, Pancreatic beta cells.

Qandli diabet (xalq orasida «saxar kasalligi» deb ham aytildi) — tanada uglevod va suv almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasallik. Me'da osti bezi funksiyasi buzilishi oqibati hisoblanadi. Me'da osti bezi insulin gormonini ishlab chiqaradi. Insulin qandni qayta ishlashda qatnashadi. Bu gormonsiz organizm qondagi glyukoza miqdorini me'yorda ushlab tura olmaydi va uning miqdori oshib ketadi. Natijada organizm ortiqcha glyukozani siydk orqali chiqarib yuborishi kuzatiladi. Kasallikni turlash muhim hisoblanadi, chunki bu kasallikning turlari boshlang'ich davrda bir-biridan tubdan farq qiladi va davolash ham shunga qarab belgilanadi. Kasallik qancha uzoq davom etaversa, uni davolash usullari bir-birga o'xshab ketaveradi.

### **1-TIP DIABET**

Shuningdek insulinga bog'liq diabet deyiladi. Ko'pincha yoshlari, 40 yoshgacha bo'lgan, ozg'in odamlar aziyat chekadi. Kasallik og'ir kechadi, davolash uchun insulin beriladi. Sababi: organizm me'da osti bezi hujayralarini yo'q qiluvchi antitana ishlab chiqaradi. Diabetni 1-turidan butunlay davolanib bo'lmaydi, lekin ba'zi hollarda bez faoliyatini me'yorda ushlab turib, parhezga amal qilinsa, kasallik bemorni ortiqcha bezovta qilmaydi. Doimiy ravishda sun'iy insulin qabul qilish talab etiladi. Insulin oshqozon-ichak traktida parchalanib ketishi bois, u faqat ineksiya orqali ovqatlanish vaqtida kiritiladi. Qat'iy parhezga amal qilib, ovqat ratsionidan yengil hazm bo'luvchi uglevodlarni (shakar, shirinliklar, mevali sharbatlar) butunlay chiqarib tashlash ko'rsatiladi.

### **2-TIP DIABET**

Bu insulinga bog'liq bo'limgan diabet deyiladi. Ko'pincha yoshi kattalar, to'laroq, 40 yoshdan o'tganlar aziyat chekadi. Sababi: hujayralarning oziq ko'pligidan insulinga ta'sirchanligining yo'qolishidir. Kasallikni davolashda har doim ham insulin kerak bo'lavermaydi. Faqtgina malakali shifokor davolash tartibini belgilay oladi. Avvalo bunday bemorlarga parhez buyuriladi. Shifokor tavsiyasiga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Tana vaznini me'yorga kelguncha asta-sekin, oyiga 2-3kg tushirib borish tavsiya etiladi. Parhezga amal qilmaganda qonda shakar miqdorini tushiruvchi dorilar, eng og'ir hollarda insulin buyuriladi.

### **QANDLI DIABET BELGILARI VA ALOMATLARI**

Kasallik belgilari bosqichma-bosqich rivojlanadi va sekinlik bilan namoyon bo‘la boshlaydi. Asosan qonda glyukoza miqdorining yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Bemorlarda kasallik paydo bo‘la boshlanganida quyidagi alomatlar qayd etiladi:

- Og‘izning doimiy qurishi;
- Qondirib bo‘lmas chanqoqlik;
- Kunlik siydk ajralishining oshishi;
- Tana vaznining kamayishi yoki birdan oshib ketishi;
- Kuchli teri qichishi va quruqlashishi;
- Teri va yumshoq to‘qimalarda yiringli yarachalar paydo bo‘lishi;
- Mushaklarning kuchsizligi va haddan tashqari terlash;
- Har qanday yaralarning qiyin bitib ketishi.

Bu belgilar uchraganda shifokor huzuriga borish tavsiya etiladi. Kasallik jiddiy asoratlar qoldirishi va koma holatigacha olib borishi mumkin. Kasallik asoratlariga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

- Ko‘rishning buzilishi;
- Bosh og‘rig‘i va aqliy faoliyat pasayishi;
- Yurak og‘rig‘i, jigarning kattalashishi;
- Oyoqlardagi og‘riq va yurishning buzilishi;
- Teri, ayniqsa, oyoqlarda sezgirlik kamayishi;
- Yaralar paydo bo‘lishi;
- Qon bosimining oshishi;
- Yuz va oyoq shishishi;
- Kasaldan aseton hidi kelishi;
- Bosh aylanishi.

## SABABLARI

### **Kasallik rivojlanishining asosiy sabablari quyidagilar:**

**Irsiyat.** Albatta, kasallik ta’sir etuvchi omillar bo‘lmaganda rivojlanmaydi, lekin moyillik yuqori bo‘ladi.

**Semizlik.** Ortiqcha vazn ikkinchi turdagи diabet shakillanishiga olib keladi.

**Kasalliklar.** Insulin ishlab chiqarish uchun javobgar beta hujayralarini shikastlanishiga olib keluvchi kasalliklar.

**Virusli infeksiyalar**(qizamiq, suvchechak, yuqumli gepatit va boshqa kasalliklar). Ushbu infeksiyalari diabet rivojlanishiga hissa qo‘sadi. Ayniqsa, xavf ostida bo‘lgan odamlar uchun.

**Asabiylashish, stress.** Stress, asabiylashishdan yiroq bo‘lish tavsiya etiladi.

**Yosh.** Yosh ortishi bilan har o‘n yilda diabet rivojlanish xavfi ikki baravar ortadi.

## DIABETIK NEYROPATIYA

Bu qo‘l-oyoqlarning og‘rishi, achishi yoki sezuvchanligini pasayib ketishi bilan namoyon bo‘ladi. Sababi nerv to‘qimalarining oziqlanishi buzilishidir. Nerv faoliyatini

tiklash uchun tiokta kislotasi saqlagan preparatlar yordam beradi. U tanadagi unglevod va lipid almashinuvini tiklaydi va asab to‘qimalarining fiziologik jarayonlari normallashtiradi.

### **KOMA**

Koma juda tez rivojlanishi mumkin. Eng keng tarqalgan diabetik koma — ketoatsidotik komadir. Bu qondagi zaharli moddalarning miqdori yuqoriligi natijasida kelib chiqadi va bunday hollarda zudlik bilan bemorga tibbiy yordam ko‘rsatilishi shart.

### **Adabiyotlar:**

1. “Terapiya” A.G.Gadayev, X.S.Axmedov Toshkent. 2000
2. “Terapiya” M.F.Ziyayeva
3. Internet ma’lumotlari